

V. TRANSPORT

Yuk tashish. 2022-yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 67,4 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,8 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 1213,4 mln.tn-km. bo'lib, 115,0 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi

	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyunga nisbatan, foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	67,4	88,8
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	67,4	88,8
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	1213,4	115,0
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	1213,4	115,0

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2021-yil yanvar-iyunga nisbatan 1,4 foizga kamaydi va 113,3 mln. tn-km.ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 21,0 foizni tashkil etdi (2021- yil yanvar- iyunda 8,0 foiz).

Yo'lovchi tashish. 2022-yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 578,1 mln.kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,5 foizga ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 11,0 foizga oshib, 5378,7 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi

	<i>2022- yil yanvar- iyun</i>	<i>2021- yil yanvar- iyunga nisbatan, foiz hisobida</i>
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	639,9	133,8
shu jumladan, avtomobil transportida	578,1	105,6
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	5 836,9	133,8
shu jumladan, avtomobil transportida	5 378,7	101,8

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2022 -yil yanvar-iyunga nisbatan 5,6 foizga ko'paydi va 578,1 mln.yo'lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 33,8 foizni tashkil etdi (2021 -yil yanvar-iyunda 79,0 foiz).